

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2025 Vol. 1 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Yekaterina Shirinova

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Manzura Abjalova, Xurshida Kadirova, Shoira Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Dilafuz Xidoyatova, Dilrabo Elova, Elyor Xonnazarov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov, Nasiba Jo'raqulova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, nashrlik ishi, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda to'rt marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. “O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,

Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Мирвари Исмаилова

Научная концепция о происхождении тюрков в Передней Азии ...5

Nasiba Jo'raqulova

Xalq dostonlarida turkiy obraz tasviri14

Sohiba Gazibekova

Diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning poetik imkoniyatlari (Xayriddin Sulton asarlari misolida)25

Umida Abdullayeva

Badiiylik modusi - she'riyatdagi modifikatsion usul31

QIYOSIY TILSHUNOSLIK

Зульфия Ишкильдина, Луиза Самситова

Корневая морфема в русском и башкирском языках38

Xurshida Kadirova, Xankishi Məmmədov

"Gözəllik" komponentləri ilə paremioloji birliklərin iks-femik semantikasi49

Xurshida Kadirova, Odina Uralova

Turkiy va turk xalq maqollarining lingvistik tadqiqi59

Nargiza Aytniyazova

O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi paremiyalarning lingvokulturologik aspekti75

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISH

Dilora Bahronova

Xorijliklarga o'zbek tilini o'qitishda til va madaniyat integratsiyasi ...84

LINGVOKULTUROLOGIYA

Shakhzoda Khayrullaeva

A linguacultural analysis of emotions through metaphors (in english and uzbek: anger, fear, love, and pride)90

PSIXOLINGVISTIKA

Dildora Salimova

Psixolingvistikada nutqni idrok etish masalasi102

SOTSIOLINGVISTIKA

Gulbahor Iskandarova, Yekaterina Shirinova

Bolalarda gender identifikatsiyasining lisoniy jihatdan xoslanishi ...111

Lobar Rahimqulova

Ijtimoiy tarmoqlardagi konfliktli yozishmalarda yosh xususiyatini ifodalovchi lingvistik va paralingvistik birliklar119

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI**Gulshan Asilova, Fatma Açık**

Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun matnlarni tanlash tamoyillari127

Турсуной Юсупова

Проблема подготовки обучающихся к текстообразительной деятельности путем выполнения грамматических заданий139

Мунира Шодмонова

Развитие критического мышления у студентов как педагогическая проблема150

Yekaterina Shirinova, Gulbahor Iskandarova

Til ta'limiga antroposentrik yondashuv masalasiga doir165

XALQ DOSTONLARIDA TURKIY OBRAZ TASVIRI

Nasiba Jo'raqulova¹

Annotatsiya

Xalq og'zaki ijodi namunalarida alp qahramonlar yo'li hamda hayot tarzi yosh avlodga ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Ularning dostonlarda er yoki eran deb nomlanishi esa turkiy shiddat va jasoratni to'la aks ettirish uchun xizmat qiladiki, xalq nomunosib kimsalarni bunday nomlar bilan e'tirof etmaydi. Mazkur maqolada mana shu masalalarga e'tibor qaratilib, alp erlarning xos maslagi tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *er, eran, jo'mard, alp eran, g'ayb eran, nafs martabalari.*

KIRISH

Er va eran obrazining shakllanishi, takomil tarixi turkiy xalqlarning turmush tarzi, o'ziga xos madaniyati va urf-odatlariga bevosita aloqador. Bu borada, eng avvalo, og'zaki ijod namunalari muhim bir bosqich vazifasini o'tagan. Chunki folklor millat ma'naviyati, imon-e'tiqodi, orzu-armonlarini aks ettiruvchi bebaho san'atdir. Zero, xalq og'zaki ijodi namunalarida ajdodlarimizning ruhiy olami, hassos kechinmalari, ibratli hayoti sodda, ammo jonli tarzda ifoda topgan.

ASOSIY QISM

“Folklor shunchaki so'z san'ati namunasi emas, balki xalqning boqiy tarixi ham. U adabiyot va san'atning ibtidosidir” [Eshonqulov 2019, 172]. Xalq og'zaki ijodi namunalarida yozma adabiyotda aks etgan obraz, ramz va timsollarning tub ildizi, mazmun-mohiyati to'la namoyon bo'ladi, ya'ni ularning folklordagi tasvirida shu millat tarixi, imon-e'tiqodi, urf-odatlar va qadriyatlari o'z tajassumini topadi. Bunday haqqoniy tasvir, jonli obrazlar, ayniqsa, dostonlarda yaqqol namoyon bo'lgan. Xalq dostonlarida qahramonning g'ayrioddiy dunyoga kelishidan maqsadiga yetguncha bo'lgan voqealar silsilasi aslida erlik safaridir. Alp er, g'ayb eran, pir kabi ma'naviy homiy obrazlaridan tortib, kampir, kal, dev, kanizak, cho'pon timsollari ham bir maqsad-muddaoga xizmat qiladi.

¹ Nasiba Jo'raqulova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail: nasibazhurakulova@gmail.com

Iqtibos uchun: Jo'raqulova N.Sh. 2025. “Xalq dostonlarida turkiy obraz tasviri”. *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari*. 1 (5): 14-24.

DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2025.1 (5)/PUTP1675

Er, eran nomlarining obraz sifatida shakllanishi, badiiy adabiyotdamustahkam mavqega ega bo'lishidaxalq orasidatarqalgan syujetlar, termalar hamda maqollarning ahamiyati beqiyos. Xususan, dostonlarda erlik juda yuksak maqom hisoblanadi. "Kitobi-Dada Qo'rqut"da pir, valiy deya ta'riflangan Qo'rqut otaning er ekanligi aytilar ekan, uning erlik sifatleri quyidagicha bayon qilinadi: "U kishi o'g'uzning komil bilguvchisi edi, nima desa bo'lardi, g'oyibdan turli xabarlar so'zlar edi. Haq taolo uning ko'ngliga ilhom berardi" [Kitobi Dada Qo'rqut 2022, 12]. Qo'rqut ota dostonida madadkor avliyo, ba'zi o'rinda qalandar darvesh qiyofasida ko'rinadi, u farzand talabidagi kishilarni duosi bilan xushnud qiluvchi, Allohning karami bilan tug'ilgan o'g'lonlarga ism qo'yuvchi sifatida gavdalanadi. O'zbek xalq dostonlarida ham eran nomi, asosan, ilohiy homiy, ulug' avliyolar jamoasini anglatadi. Folklorshunos Sh.Turdimov "Go'ro'g'li" dostonining turkman versiyasida eranlar deganda Xizr (a.s.), Qambar ota va Hazrati Ali nazarda tutilishini aytib, er nomi, asosan, Xizr (a.s.)ga nisbat berilishini yozadi [Turdimov 2011, 40]. Xalq dostonlarida, jumladan, o'zbek xalqining qahramonlik eposi sanalgan "Alpomish"da ilohiy iqtidor sohiblari, Alloh taologa suyukli bo'lgan xos bandalar er, jamoa ma'nosida kelganda esa eran deyilgan:

*Xoliqsan, Karimsan, qahringdan qutqar,
Qodir Oblo, o'zingdadir ixtiyor,
Shohizinda, er Doniyor, payg'ambar,
Xo'jayi Zumrati, Xo'jayi Ahror,
Bobo yakka pirsiz, er Xo'jamosor,
Eshoni suluk So'fi Olloyor. [Alpomish 1993, 104]*

Shuningdek, og'zaki ijodda alp eran va g'ayb eran obrazlari ham muhim ahamiyatga ega. Professor A.Jabajio'g'li alp eranlarni qahramon jangchi, Usmonlilar davlatining tashkil topishida foydali xizmatlar qilgan bahodirlar, deya izohlasa, g'ayb eranlarni ko'rinmas avliyolar, Alloh odamlari, deydi. G'ayb eranlar Allohdan boshqani bilmaydilar, faqat Uning yodi bilan band bo'ladilar [Cebecioğlu 1997, 2012]. G'ayb eran istilohi aslida "rijol-ul g'ayb" bilan ma'nodosh bo'lib, ular "tasavvufiy maslakda dunyoni boshqarish va idora etishlari qabul qilingan valiyalar jamoasi" [Haqqul 1998, 72]dir. "Arabchadagi rijolulloh (Allohning mardlari, Alloh ahli) menga eran kalimasining muqobilidek tuyuladi" [Jo'shon 2000, 50], deb yozadi Shayx Mahmud Asad Jo'shon. Mumtoz adabiyot namunalarida ham bu ikki istiloh ayni bir ma'noda qo'llanadi. Alp eranlar g'oziy darveshlar, kufrga botgan o'lkalarda adolat o'rnatish uchun kurashgan jangchi mutasavviflar, deb ham ta'riflangan. "Eranlik" ma'naviy olamning,

“Alplik” esa moddiy olamning nishonasidir. Azaldan “alp” tabiatli turkiylar islomiyat ato etgan dinamizmni “Eranlik”ka qo‘shib, yanada buyuk ishlar, yana ham muqaddas maqsadlar uchun kurashib, alp-eran bo‘lganlar” [Go‘zal 2014, 28]. Dostonlarda botir qahramonlarning hayot tarzi va faoliyati aynan alp eranlik yo‘li sanaladi. G‘ayb eranlar esa alplarning himoyachisi va tarbiyachi o‘laroq ko‘zga tashlanadi. Jumladan, “Alpomish” dostonida Qorajon Alpomishning boshini chopmoqchi bo‘lganida, uch marta g‘azabnok qo‘lingni tort, degan ovoz kelishi, Kuntug‘mish ajdarho bilan jang qilayotganda, Burqsarmast devona paydo bo‘lib, maxluqni yengish yo‘lini o‘rgatishi, umuman olganda, u yoki bu ko‘rinishda alplarning eranlar tomonidan homiylikka olinishi fikrimizni quvvatlaydi. Dostonlarda g‘ayb eranlar alp bahodirga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, oq fотиha beruvchi valiy siymosida ham keladi. “Go‘ro‘g‘li” dostonining turkman versiyasida eranlar qahramonning ko‘ksini yorib, butun a‘zolarini nur bilan yuvishadi. Dostonning o‘zbek tilidagi variantida bu voqea biroz boshqacharoq, ya‘ni Go‘ro‘g‘lining g‘orda chiltanlar jamoasida mehmon bo‘lib, ulardan qilich olishi va in‘omlar bilan siylanishi tasvirlangan. G‘orning G‘avsul-G‘iyos va chiltanlar maskani, deya ko‘rsatilishi, qirq odamning gulxan atrofida, to‘rt zotning sandalda o‘tirishi avliyolar tabaqasi hisoblangan G‘avs (shayxlarga beriladigan eng oliy unvonlardan biri, qutblarga yordamchi hisoblanadi [Buxoriy 2003, 26]), Abdol (g‘oyib kishilar toifasi bo‘lib, xalq ichida bo‘lsalar ham, ularning valiy ekanlarini hech kim bilmaydi, fors va turkiy tillarda ular “chihltan” nomi bilan ataladilar, 40 kishidan iborat bo‘ladilar [Buxoriy 2003, 26]), Avtodlar (abdol kabi zotlar bo‘lib, manbalarda ularning soni to‘rtta deb ko‘rsatiladi [Buxoriy 2003, 27])ga ishoradir. Dostonlarda g‘ayb eranlar birikmasi g‘oyib eran tarzida ham qo‘llangan:

*Sanam qizsan, qora zulfing tugundi,
To‘rang g‘oyib eranlarga sig‘indi,
Mendan qolsang, seni birov oladi-da,
Xumorjon, o‘lmaklik juda qiyindi. [Ravshan 2011, 283]*

Dostonlarda pir, avliyo, g‘ayb eranlar nazariga tushib, ular nuridan nasiba olgan alp er voqealar so‘ngida ma‘naviy poklanib, aziz zotga aylanadi va o‘ziga xos tarbiya maktabini davom ettirib, el-yurt uchun xizmat qiladi.

Ma‘lumki, xalq dostonlarining syujet chizig‘i aksariyat hollarda farzandsizlik musibati bilan boshlanadi. Uzoq kutilgan o‘g‘lon Yaratgan inoyati hamda iymon-e‘tiqod natijasi o‘laroq dunyoga keladi. Aynan shu o‘g‘lon ulg‘ayib, er nomiga loyiq bo‘ladi.

Misol uchun “Erali va Sherali” dostonida Bulg’or shahri podshosi Qoraxon 64 yoshda Allohdan farzand berishini so’rab, Shayx Oppoxo’ja huzuriga duo olish uchun boradi. Shayx podshohga Xudoyim ikki o’g’il berishini, ular Yusufday husnli, Rustamday mard, kuchli, aqlli, davlatga munosib bo’lishlarini bashorat qilar ekan, farzandlar tug’ilgach, ularga ism qo’yish uchun qalandar qiyofasida boradi:

*Egali bo’libdi podshoning eli,
Kichigining oti bo’lsin Sherali.
Bu olamda Eralisi er bo’lar,
Martabali yigit elda zo’r bo’lar.* [Erali va Sherali 1967, 11]

Erali maktab yoshidanoq ustozlari hamda maktabdoshlarining hurmat- e’tiborini qozongan edi, Ayniqsa, murabbiy Mirzo Haydar ta’rifi Eralining zakovat-u ilm-u hikmatda tengsizligini ifodalaydi:

*Erligingni el-u yurtga bildirgin,
Siyosatdan dushmaningni so’ldirgin,
Do’st kishingni xursand qilib kuldirgin,
Men sening qurboning bo’lay, Erali.* [Erali va Sherali 1967, 19]

“Alpomish” dostonida Hakimbekning erlik maqomini olishi ham diqqatga sazovordir. Boybo’ri va Boysarining Shohimardon pir ravzasida qirq kun tunab, “Xudoning yaratgan sheri siz bo’lsangiz, bizlar uchun oraga tushib, biror farzand tilab olib bermasangiz, bizga pirligingiz yolg’on”, – deya pirning madadida Allohning rahmatidan umidvor bo’lganlari, farzandlar dunyoga kelgach, xalq orasida Shohimardon pir nomi bilan mashhur bo’lgan Hazrati Alining ism qo’yib, taqdir hukmini bayon qilishlaridayoq Hakimbekning er maqomiga ko’tarilishiga ishora bor edi. Bo’lg’usi er Hakimbekka Shohimardon pir nazari tushishi hamda hayoti davomida unga ma’naviy hamroh bo’lishida mana shu hikmat ayon bo’ladi. Shu sababli Qorajon Alpomishga “nazari er ekan” [Alpomish 1999, 39], deya taslim bo’ladi. Xalq og’zaki ijodida nazarkardalik bilan dunyoga kelish komillikning bir belgisi hisoblanadi. Azaldan turkiy xalqlarda balo yoxud ofat soya solib kelganda, o’tgan aziz avliyolar ruhini vasila qilib, Alloh taolodan panoh, madad so’rash, ixlos bilan muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish odatlari mavjud bo’lgan¹. Hakimbek

¹ Izoh: Avliyolardan madad so’rash, ularning ruhi bilan suhbat qilish haqida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf shunday yozadilar: “Shayx ibn Qayyum o’zining “Ruh” kitobida ta’kidlagan: “Agar vafot etgan shayxdan madad so’ralsa, uning Haqqa yaqin holda, barzaxda hayot turgan ruhidan so’raydi. Undan o’zining ishlarida Alloh taologa shifoatchi bo’lib yo’llanishini so’raydi. Ruhlar o’z olamida zamon va makon chegarasi ila bog’lanmagan holda hayot kechiradi. Shubhasiz,

yurt tanazzul yoqasida turganida dunyoga keldi. Uning tug'ilishi ikki millatning farovon kelajagi, xotirjam hayot kechirishi uchun juda muhim edi. Alpinbiy bobosidan qolgan 14 botmon yoyni ko'tarib, Hakimbek Alpomish nomini oladi. Baxshi Ergash Jumanbulbuldan yozib olingan termalarda shu yoshda Alpomish er nomiga ega bo'lgani badiiy ifoda etiladi:

*Bek Alpomish yetti yoshda er yetgan,
Kopirga qaratib to'qson tog' otgan.
Qalmoqman Farangni dinga qaratgan,
Zo'rliklari tilda lak devcha bordir. [Bulbul taronalari 1973,
109]*

Hakimbekning Alpomish bo'lishidagi yana bir omil kamon voqeasidan keyingi suhbat¹ bo'lib, 7 yoshli alp erning arslonkelbat bahodirligi barobarida ma'rifatli qalb egasi ekanligining ham dalili edi. Alpomish otasi bilan bo'lgan suhbatda saxiylik, avvalo, ko'ngil saxovati, til himmati, shuningdek, mol-mulk ehsoni ekanligini aytar ekan, ochiqqo'llik miqdor bilan emas, niyat sofliги yordamida qiymat etilishini xalqona misollar yordamida bayon qiladi. Yetti yoshli Hakimbekning fikr-qarashlari hazrat Navoiyning: "Birta o'tmakni ikki bo'lib, yarmin bir ochg'a berganni saxiy de", – e'tirofi bilan mazmunan yaqindir. Zero, Allohning kalomida ham: "*Kimki (bir) hasana (savobli ish) qilsa, unga o'n barobar (ko'paytirib) yozilur*" [An'om: 6/160], – deya marhamat qilinadi. 7 yoshida Alpomish diniy hamda dunyoviy ilmning zukko bilimdoni bo'lib ulgurgan edi. Aytmoqchi bo'lganimiz, erlik yo'lining ibtidosi ilm-u hikmat o'rganishdan boshlanadi. Bu esa Alloh taolo amrlaridan to'liq xabardor bo'lishdir.

Er va eran millat tasavvurida adolat bilan yurt boshqaruvchi, el-u yurtning farovon va obod yashashini ta'minlovchi odil hukmdor qiyofasida gavdalantirilgan:

*O'lmasa, Yodgor bolam Er yetar,
Omon-eson bolam o'lmay Er yetsa,*

bu narsa eng xatarli toyish joylaridan biridir. Buni to'g'ri anglab yetishga va zabt qilishga faqat yuksak aql egalorigina qodir bo'ladilar" [Shayx Muhammad Sodiq, 2019:272].

¹ "Boybo'ribiy shunda o'g'li Alpomishdan: - Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi? – deb so'radi. Unda o'g'li turib aytdi: - Vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joyi bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy; agar joyi bor turib, joy yo'q deb qo'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil. Vaqt-bevaqt kishi bir mozorotning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqiga duo qilib o'tsa, bul ham saxiy, agar bunday qilmasa baxil. Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy, agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan" [Alpomish, 1992:9-10].

*Boybo'ring yuragidan cher ketar,
Otasin o'rnini Yodgorjon tutar.
Ota yurtim Yodgor qo'zim tebratar,
G'anim bo'lgan dushmanlarni bo'zlatar,
Otasi Er edi, Erday bo'p o'tar,
Otasining yurtin shunday bo'p tutar. [Alpomish, 1993:47]*

“El ishini er qilur, Er qadrini el bilur”, “El – Erning sinchisi”, “Erning so'zi – elning so'zi”, “Er – elniki”[O'zbek xalq maqollari 2019, 24-26] singari maqollar ham dostonlardagi er timsolining mazmuniga hamohang. Davlatqush qushi uch marta Kuntug'mish boshiga qo'nishi va uning taxtga o'tirishi, Go'ro'g'li sultonning Chortoqli Chambilda o'z hukmronligini tuzishi, Alpomishning Ultontozdan hukmronlikni tortib olishi, Eralining Bag'dodga kirib borishi bilan davlat qushiga nishon bo'lishi va qarshiliklarga qaramay, taxtga chiqishi tasodif bo'lmay, ularning erlik maqomiga ko'tarilgani hamda xalq rahnamosiga aylanishga ma'nan haqli ekanligidandir. Shu sabab alp erlar zulm hukm surgan o'lkalarni ozod qilganidan so'ng u yerga asl erlarni hukmdor qilib tayinlaydi. “Ravshan” dostonida ham “sen eding erlarning eri” ta'rifi bilan e'tirof qilingan Aynoq kal Shirvon elining yo'lboshchisi edi:

*Senga hamdam bolalarim arvohi,
Savashda sen eding erlarning eri.
O'zing ko'rgan qanday davrim bor edi,
Yo'lbars edi bollarimning har biri.
Ayiraman desang kelar qo'lingdan,
Sen botirsan, har so'z chiqar tilingdan. [Ravshan 2011, 335]*

Alpomish Qayqubodni Qalmoq yurtining podshosi qilib tayinlaydi. Qayqubod cho'pon fahm-u farosatda tengsiz, kibr-u havo, manmanlikdan yiroq bo'lgan ozod shaxs edi. Shu sababli dostonida uning nomi har vaqt er sifati bilan yonma-yon keladi:

*Er Qayqubod bunda davron suradi...
Xudoning taqdiri shunday keladi.
Shoirlar aytadi shunday ma'rifat,
Tag'i kelgan bunga ayyomi davlat. [Alpomish 1993, 121]*

“Kitobi Dada Qo'rqu” dostonida er Qayqubodga o'xshash Qorajiq cho'pon obrazi mavjud. Dushman 600 nafar qo'shini bilan kelib, cho'pondan bosh egib, salom berishini talab qilganda, “Bekorga valaqlama, so'z so'ylama, hoy it dushman”, deya g'animlarni yer tishlatgan Qorajiq dostonida “eramlarning eri” deya ta'riflanadi:

“Ərənlər əvrəni Garachyг Choban sapaынын аjасына, dash gojdu, atdy. Birin atanda ikisin, үchүн jыхды [Kitobi Dada Qo'rqut 1978, 34] (Eranlarning eri Qorajiq cho'pon palaxmoniga tosh soldi, aylantirib otaverdi. Bir otishda ikki-uchtasini yiqdi [Kitobi Dada Qo'rqut 2022, 35]). Umuman olganda, xalq nazarida adolatli hukmdor er bo'lishi lozim. Xalq dostonlarida uning el-yurt farovonligi yo'lida tinmay mehnat qilishi kerakligi uqtirilgan.

Dostonlarda ustoz, pirlar ham, asosan, er nomi bilan atalgan. Hatto ulug' valiyar yashaydigan makon-manzil nomi ham ularga nisbat berilgan. “Go'ro'g'li” dostonida Go'ro'g'li tushidagi ishoratlarni anglash uchun Ersari degan manzilda istiqomat qilayotgan Sari bobo talabida 40 yigiti bilan yo'lga chiqadi:

*Ersarida barcha uni biladi,
Katta-kichik xizmatini qiladi.
U turkmanga ulug' bobo bo'ladi,
So'rasang, ul berar nishona. [Go'ro'g'lining tug'ilishi 1996, 32]*

Dostonda bu joy nomiga: “Turkmanning ulug' bobosi Ersari nomiga turkmanning bir bo'lagini Ersari der edi” [Go'ro'g'lining tug'ilishi 1996, 32], – deya izoh beriladi. Go'ro'g'li boradigan Ersari avliyolar maskani, u aynan shu yerda Sari bobo va Qora bobo huzurida o'z maqsad-muddaosini anglaydi.

Go'ro'g'li xalq tasavvurida hech yengilmas bahodir, dono va oqil yo'lboshchi qiyofasida yashab kelgan obrazdir. Shu sababli xalq termalarida ham uning tilidan aytilgan qo'shiqlar ko'plab uchraydi:

*El qidirdim, hadsiz yurdim,
Elni to'g'ri yo'lga burdim.
Er Go'ro'g'li atangan so'ng,
Ko'p qo'shinni tanho urdim. [Bulbul taronalari 1973, 134]*

“Ravshan” dostonida Hasanxon – bola tarbiyasini hayotning mazmuni, deb bilgan ota, jasur vallomat. 13-14 yoshida kuchli tayyorgarlik bilan, ichki qo'rquvni yengib, olis va mashaqqatli safarga yo'l olgan alp er Ravshan islomiy ilm-u ma'rifatni chuqur egallagan edi. 14 yoshli Ravshan dor qarshisida e'tiqodidan voz kechib, tirik qolish yoki iymon bilan o'lim topish tanloviga yuzmayuz kelganda ham, Hasanxon zarracha shubhaga bormaydi. Jaynoq kalning o'g'lingning mard, nomardligini sinaylik, degan taklifiga jahl bilan javob berarkan: “E tentak! Mening o'g'limning ostida oti bor, ustida to'ni bor, buni sinaysanmi?” [Ravshan 2011, 343], - deya g'azabini bosa olmaydi. Turkiy xalqlarda ot va chopon erlarning doimiy yo'ldoshi, ot minish o'ziga ishonch, jismoniy mukammallik,

botirlik, erlik belgisi hisoblangan:

*Ot demasman senga, qardosh derman, qardoshimdan yaxshi,
Boshimga ish tushdi, yo'ldosh derman, yo'ldoshimdan yaxshi*
[Kitobi Dada Qo'rquut 2022, 35].

Donishmand xalqimiz iymon-e'tiqodsiz kishilarni inson qatoriga qo'shmagan, oriyatsizlikdan nomus qilgan, bunday kimsalarni er nomiga loyiq ko'rmagan. Doston oxiridagi jang voqeasida islom nuridan bebahra Qoraxon qo'shini haqida "Qo'shin qochib boradi, Bir Er chiqmay Shirvondan" [Ravshan 2011, 362], deyilishining sababi ana shunda. Bunday kimsalarning aksi o'laroq dostonda er deb ulug'langan Hasaxon esa mana bunday ta'riflangan:

*Odam emas parimi?
Bu jahonning zo'rimi?
Yovda yo bir bo'rimi?
Sohibqiron ko'p o'tgan,
Yo shularning birimi?* [Ravshan 2011, 358]

Bu savollarga el tilida munosib javob bor: "Hasan yurar sherday bo'p, Yolg'iz o'zi erday bo'p". Folklor namunalarida er, eranlarning ma'naviy siyrati bilan bir qatorda tashqi ko'rinishi, shakl-shamoyili ham muayyan tasvirga ega. Ersari "Yusufday husnli, jamolli, xushsurat, pahlavonkelbat", deyilgan bo'lsa, Go'ro'g'li ta'rifida "go'zal bo'z bola", "jaynagan jamoli mis gul-lola" kabi e'tiroflar keltiriladi. Hasaxon esa: "...devsifat, bir ajdahoday, hech narsani ko'ziga iladigan emas, balki nazariga keltirmay, pisand qiladigan ham emas, shunday haybatli, siyosatli" [Ravshan 2011, 340]. Erlarning sher ekanligi ham alohida ta'kidlanib, ko'p o'rinlarda bu ikki so'z yondosh qo'llanadi. Xususan, xalq maqollaridagi "Yigit degan er bo'lar, mehnat ko'rsa, sher bo'lar", "Erga navbat – sherga navbat", "Erning yuragi – sherning yuragi", "Er qayerda bo'lsa, sher panjasi o'sha yerda" singari ifodalar erlikning eng asosiy xususiyati jasorat va chapdastlik ekanligiga ishoradir.

XULOSA

Bizning yurtimizda katta tarbiya maktabi mavjud bo'lgan, har bir oilada farzandlar aniq mezon asosida voyaga yetkazilgan. Er kishi o'z yurtining munosib egasi bo'lishi kerakligi uqtirilgan. Asl milliy qadriyatlar dostonlarda er obrazi orqali ifodalangan. Dostonlardagi eng asosiy qahramonlarni er dedik, bu shunchaki his-tuyg'u ta'siridagi tahlil emas. Zero, xalq bir qo'rquq, kaltabin kimsani er deya atamaydi yoxud o'z qahramoni sifatida doston qilib kuylamaydi.

Adabiyotlar

- Эшонкул Ж. 2019. Иброҳим аканинг ҳақиқатлари. Моҳиятга муҳаббат: тўплам / Масъул муҳаррир Т.Мирзаев. Тошкент: Тафаккур.
- Китоби-Дада Қўрқут. 2022. Таржимон Бобоҳон Муҳаммад Шариф. Боку: Нусха.
- Турдимов Ш. 2011. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. Тошкент: Фан.
- Алпомиш. 2-қисм. 1993. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Тошкент: Ўзбекистон.
- Cebecioğlu E. 1997. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. – Ankara: Rahber yayınları.
- Ҳаққул И. 1998. Ирфон ва идрок. Тошкент: Маънавият.
- Маҳмуд Асад Жўшон. 2000. Ислом, тасаввуф ва ахлоқ. Тошкент.
- Гўзал А. 2014. Яссавий “Фақрнома”си. Таржимон Н.Ҳасан. Тошкент: Наврўз,
- Ҳожи Абдулғафур Раззоқ Бухорий. 2003. Тариқатга йўлланма. Тошкент: Мовароуннаҳр.
- Ravshan. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. 2011. Toshkent: Sharq.
- Эрали ва Шерали. 1967. Айтувчи Ислом шоир Назар ўғли. Нашрга тайёрловчи Т. Мирзаев. Тошкент: Фан.
- Булбул тароналари. 5-том. Дostonлар ва термалар. 1973. Нашрга тайёрловчи Ҳоди Зариф. Масъул муҳаррир Тўра Мирзаев. Тошкент: Фан.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2019. Тасаввуф ҳақида тасаввур. Тошкент: Ҳилол нашр.
- Ўзбек халқ мақоллари. 2019. Тузувчилар Мирзаев Т. ва б. Тошкент: Шарқ,
- Китоби-Дэдэ Горгуд. 1978. Тәртиб едәни һәмид Араслы. Баки: Кәнчлик.
- Китоби Дада Қўрқут. 2022. Таржимон Бобоҳон Муҳаммад Шариф. Боку: Нусха.
- Гўрўғлининг туғилиши. 1996. Айтувчи Раҳматулла Юсуф ўғли. Нашрга тайёрловчилар Мирзаев Т., Ҳусаинова З. Тошкент, Ёзувчи.

THE DEPICTION OF TURKIC IMAGERY IN FOLK EPICS

Nasiba Jurakulova¹

Abstract

The path and lifestyle of heroic characters in samples of folk oral literature serve as a school of inspiration for the younger generation. Their designation as *er* or *eran* in epics is intended to fully reflect Turkic vigor and bravery, as the people do not attribute such titles to unworthy individuals. This article focuses on these issues and analyzes the unique ethos of the alp heroes.

Keywords: *er, eran, jomard, alp eran, ghayb eran, stages of the self.*

References

- Ehshonkul Zh. 2019. *Ibrohim akaning haqiqatlari. Mohiyatga muhabbat: tuplam / Mas'ul muharrir T.Mirzayev. Toshkent: Tafakkur.*
- Kitobi-Dada Kurkut. 2022. *Tarjimon Bobohon Muhammad Sharif. – Boku: Nuskha.*
- Turdimov Sh. 2011. *“Go‘rugli” dostonlarining genezisi va tadriij bosqichlari. – Toshkent: Fan.*
- Alpomish. 2-qism. 1993. *Ajtuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘gli. Toshkent: O‘zbekiston.*
- Cebecioğlu E. 1997. *Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. Ankara: Rahber yayınları.*
- Haqqul I. 1998. *Irfon va idrok. Toshkent: Ma’naviyat.*
- Makhmud Asad Zhushon. 2000. *Islom, tasavvuf va ahloq. Toshkent: Ma’naviyat.*
- Guzal A. 2014. *Yassavij “Fakrnoma”si. Tarjimon N.Khasan. Toshkent: Navruz.*
- Khozhi Abdulgafur Razzoq Bukhoriy. 2003. *Tarikatga qo‘llanma. – Toshkent: Movarounnakhr.*
- Ravshan. 2011. *Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o‘gli. Toshkent: Sharq.*
- Ehrali va Sherali. 1967. *Ajtuvchi Islom shoir Nazar ugli. Nashrga tajyorlovchi T. Mirzaev. Toshkent: Fan.*
- Bulbul taronalari. 5-tom. *Dostonlar va termalar. 1973. Nashrga tajyorlovchi Xodi Zarif. Mas'ul muharrir To'ra Mirzayev. Toshkent: Fan.*
- Shayh Mukhammad Sodiq Muhammad Yusuf. 2019. *Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent: Hilol nashr.*
- O‘zbek xalq maqollari. 2019. *Tuzuvchilar Mirzayev T. va b. Toshkent: Sharq.*

¹ *Nasiba Jo‘raqulova – Teacher at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Doctor of Philosophy in Philology.*

E-mail: nasibazhurakulova@gmail.com

For citation: Jurakulova N.Sh. 2025. “The depiction of Turkic imagery in Folk epics”. *Uzbekistan: Language and Culture. Issues of Applied Philology.* 1 (5): 14-24.

Kitobi-Dədə Gorgud. 1978. Tərtib edəni həmid Arasly. Baky: Gənclik.

Kitobi Dada Kurkut. 2022. Tarjimon Bobokhon Mukhammad Sharif. Boku: Nuskha.

Go'ro'glining tug'ilishi. 1996. Ajtuvchi Rahmatulla Yusuf o'gli. Nashrga tayyorlovchilar Mirzayev T., Khusainova Z. Toshkent: Yozuvchi.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiya:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiya kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiya berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anjon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiya barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiya berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiya foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida

aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. "Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi". *UZA: O'zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of

the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.
'

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE**Article in a print journal**

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan №0936 raqami bilan ro'yxatdani o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2921.№308/6).

Manzil: O'zbekiston, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>